QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI YEVROPA BOZORIGA CHIQARISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI

INSTITUTIONAL MECHANISMS FOR AGRICULTURAL PRODUCTS ENTERING THE EUROPEAN MARKET

Muallif: Raximov Feruz Uyg'unovich [1]
Affiliyatsiya: Mustaqil tadqiqotchi, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi sho'ba mudiri[1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23280003

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlarini Yevropa Ittifoqi bozoriga chiqarishda tarif preferensiyalari, sanitariya va fitosanitariya talablari, xususiy sertifikatlash, laboratoriya va monitoring tizimlarining o'zaro bog'liqligi institutsional iqtisodiyot nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. GSP+ boj yukini pasaytiruvchi mexanizm bo'lsa-da, bozorga real kirish GLOBALG.A.P., MRL, fitosanitar sertifikatlash, HACCP, kuzatuvchanlik, ISO/IEC 17025 laboratoriya salohiyati va riskka asoslangan nazorat bilan belgilanadi. Tadqiqotda muvofiqlik xarajatlari tranzaksiya xarajatlarining alohida ko'rinishi sifatida talqin qilinadi hamda O'zbekistonda yagona raqamli eksport zanjiri, riskka asoslangan monitoring va kichik fermerlar uchun guruhli sertifikatlashni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: GSP+, SPS, GLOBALG.A.P., MRL, fitosanitariya, HACCP, monitoring

ABSTRACT

The article examines the institutional mechanisms that determine access of Uzbek agricultural products to the European Union market. The analysis combines preferential trade, sanitary and phytosanitary regulation, private certification, laboratory capacity and monitoring within a single institutional framework. Although GSP+ reduces tariff costs, actual market access depends on compliance with GLOBAL G.A.P., pesticide maximum residue levels, phytosanitary requirements, HACCP-based food safety, kuzatuvchanlik and internationally competent laboratories. Compliance costs are interpreted as transaction costs that may particularly constrain small producers. The paper proposes an integrated risk-based monitoring system, digital export-lot kuzatuvchanlik, stronger accreditation and producer-group certification as priority institutional measures for Uzbekistan.

Keywords: GSP+, SPS, GLOBALG.A.P., MRL, phytosanitary control, HACCP, monitoring

Yevropa Ittifoqi (YI) qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari uchun yuqori to'lov qobiliyatiga ega, biroq tartibga solish darajasi ham yuqori bo'lgan bozordir. Shu sababli eksport imkoniyatini faqat boj stavkasi yoki transport masofasi bilan izohlash yetarli emas. D. North institutlarni iqtisodiy almashinuvni shakllantiradigan formal va informal qoidalar sifatida ko'rsatadi [1], O. Williamson esa shartnoma tuzish, axborot yig'ish, monitoring va majburiyatlarni bajarish xarajatlarini tranzaksiya xarajatlari

orqali tushuntiradi [2]. Agroeksportda laboratoriya sinovi, sertifikatlash, fitosanitar inspeksiya, kuzatuvchanlik va chegaradagi kechikishlar aynan shunday xarajatlardir.

Xalqaro savdo nazariyasiga koʻra, tarif preferensiyasi eksportchining narx ustunligini kuchaytiradi, ammo bozorga kirish uchun doimiy muvofiqlik xarajatlari mavjud boʻlsa, bu imkoniyat barcha firmalarga bir xil ta'sir qilmaydi [3]. Kichik fermer uchun audit, laboratoriya testi, raqamli hisob va sertifikatlashning bir birlik mahsulotga toʻgʻri keladigan xarajati yirik korxonaga nisbatan yuqori boʻlishi mumkin. Shuning uchun mazkur maqolaning asosiy ilmiy gʻoyasi “muvofiqlikning institutsional tannarxi” tushunchasiga asoslanadi: tarif imtiyozi bozorga kirish narxini pasaytiradi, lekin eksportning barqarorligi talablarni bajarish xarajati va rad etilish riskini kamaytiradigan institutlar sifatiga bogʻliq.

Tadqiqotda institutsional tahlil, tranzaksiya xarajatlari yondashuvi, global qiymat zanjiri konsepsiyasi, riskka asoslangan tartibga solish va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Normativ baza sifatida YI reglamentlari, JST (WTO SPS) kelishuvi, IPPC hujjatlari, GLOBAL G.A.P. talablari hamda Oʻzbekistonning 2026-yildagi oziq-ovqat xavfsizligi islohotlari qabul qilindi.

GSP+ sanitariya yoki sifat sertifikati emas, balki rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tarif preferensiyasi mexanizmidir. Yevropa Komissiyasi GSP tizimini ayrim import tovarlari boʻyicha bojlarni kamaytirish yoki bekor qilish vositasi sifatida belgilaydi [4]. Oʻzbekiston GSP+ benefitsiari sifatida ushbu imkoniyatdan foydalanadi. Biroq aniq preferensiya HS/CN kodi va kelib chiqish qoidalariga bogʻliq; barcha qishloq xoʻjaligi mahsulotlari uchun avtomatik ravishda bir xil nol stavka qoʻllanmaydi.

Preferensiyani amalda qoʻllashda tovarning kelib chiqishini tasdiqlash muhim. YI GSP tizimida Registered Exporter System (REX) eksportchining oʻzini oʻzi sertifikatlash tamoyiliga asoslanadi: roʻyxatdan oʻtgan eksportchi tijorat hujjatida kelib chiqish toʻgʻrisidagi bayonotni rasmiylashtiradi [5]. Demak, GSP+ eksport rentabelligiga bevosita ta'sir qilsa-da, u SPS, MRL yoki fitosanitar talablarni bekor qilmaydi. Institutsional jihatdan tarif preferensiyasi va texnik muvofiqlik bir-birini toʻldiruvchi, ammo alohida boshqariladigan mexanizmlardir.

Sertifikatlash, MRL va oziq-ovqat xavfsizligi. YI bozorida davlatning majburiy talablaridan tashqari xususiy xaridor standartlari ham katta rol oʻynaydi. GLOBAL G.A.P. Integrated Farm Assurance meva-sabzavot yetishtirishda ishlab chiqarish jarayoni, pestitsid va oʻgʻitlardan foydalanish, hujjatlashtirish, mehnat va oziq-ovqat xavfsizligi, shuningdek riskli elementlarini tekshiradigan keng tarqalgan xususiy standartdir [6]. U YI qonunchiligining oʻrnini bosmaydi, biroq koʻplab supermarket va importerlar uchun shartnomaviy bozorga kirish talabi boʻlishi mumkin. Shu sababli GLOBAL G.A.P.ni faqat “sertifikat xarajati” emas, balki fermerning boshqaruv sifatini oshiruvchi hamda xaridor bilan ishonchni pasaytiradigan axborot assimetriyasini kamaytiruvchi institut sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Pestitsid qoldiqlari boʻyicha eng yuqori ruxsat etilgan daraja — Maximum Residue Levels (MRL) YI qonunchiligi ((EC) No 396/2005) asosida tartibga solinadi. MRL — oziq-ovqat yoki yem mahsulotida muayyan pestitsid qoldigʻining qonuniy maksimal darajasi. Muayyan faol modda va mahsulot kombinatsiyasi uchun maxsus limit belgilanmagan hollarda odatda 0,01 mg/kg umumiy limit qoʻllanadi. Bu holat Oʻzbekiston eksportchilari uchun muhim: milliy roʻyxatdan oʻtgan pestitsidning mavjudligi uning YIga moʻljallangan mahsulotda avtomatik ravishda maqbul ekanini anglatmaydi. MRL nazorati eksport oldidagi yakuniy testdan emas, vegetatsiya

davrida pestitsid tanlash, dozasi, qo‘llash sanasi, hosil yig‘ishdan oldingi interval, lot identifikatsiyasi va riskka asoslangan namuna olishdan boshlanishi kerak.

Oziq-ovqat korxonalarida HACCP (Hazard Analysis and Critical Control Points) tamoyillari xavflarni aniqlash va kritik nazorat nuqtalarini boshqarishning asosiy operatsion yondashuvlaridan biridir. Ushbu maqoladagi NASSR tushunchasi esa universal xalqaro standart nomi sifatida emas, balki milliy agrooziq-ovqat xavfsizligi va SPS risklarini laboratoriya, fitosanitariya, bojxona, monitoring va raqamli ma'lumotlar bilan integratsiyalashgan boshqarish arxitekturasi sifatida qo‘llanadi. Shu ma'noda HACCP korxona darajasidagi jarayon nazorati bo‘lsa, NASSR milliy institutsional koordinatsiya modeli sifatida talqin qilinadi. JST (WTO SPS) kelishuvi sanitariya va fitosanitariya choralarining ilmiy asoslangan, zarur va asossiz diskriminatsiyadan xoli bo‘lishini talab qiladi [8].

Fitosanitariya, monitoring va kuzatuvchanlik. YI o‘simliklar salomatligi tizimining asosiy huquqiy bazasi qonunchiligi (Regulation (EU) 2016/2031) va uni amalda to‘ldiruvchi qonun ijrosi (Implementing Regulation (EU) 2019/2072) hisoblanadi [9]. Tegishli o‘simlik va o‘simlik mahsulotlari YIga kirishda eksport qiluvchi mamlakatning vakolatli fitosanitar organi tomonidan berilgan sertifikat bilan birga yuboriladi. Sertifikat mahsulotning umumiy “sifati”ni emas, balki import qiluvchi tomonning karantin va fitosanitar talablariga muvofiqligini tasdiqlaydi. Shuning uchun milliy fitosanitariya tizimi pestitsid xavfi tahlili (pest risk analysis), monitoring, inspeksiya, laboratoriya diagnostikasi va sertifikatlashni yagona zanjirda boshqarishi kerak.

YI qonunchiligi (Regulation (EU) 2017/625) rasmiy nazoratni riskka asoslangan tizim sifatida tashkil etadi: hujjat tekshiruvi, identifikatsiya, zarur hollarda fizik ko‘rik va laboratoriya sinovi o‘tkaziladi [10]. TRACES/IMSOC esa ayrim tartibga solinadigan jo‘natmalar bo‘yicha oldindan elektron xabarnoma va rasmiy nazorat hujjatlarini almashish platformasidir. O‘zbekiston eksportchisi uchun bu talab jo‘natma haqidagi lot, sertifikat, transport va operator ma'lumotlarini YI importeriga to‘liq va o‘z vaqtida yetkazishni anglatadi. Regulation (EC) No 178/2002ning kuzatuvchanlik tamoyili esa mahsulotni fermer va daladan tortib, yig‘im, qadoqlash ombori, laboratoriya natijasi, konteyner va importerga qadar qayta kuzatish imkonini talab qiladi [11].

Monitoring tizimida uch darajani ajratish ilmiy va amaliy jihatdan foydali: eksportchining preventiv namuna olishi, davlatning milliy qoldiq va fitosanitar monitoringi hamda YI chegarasi yoki ichki bozoridagi rasmiy nazorat. Birinchi darajadagi ijobiy laboratoriya natijasi keyingi davlat nazoratini avtomatik bekor qilmaydi. Shu sababli davlat monitoringining maqsadi faqat namuna sonini ko‘paytirish emas, balki mahsulot-hudud-faol modda-operator kesimida risk profilini shakllantirish va tekshiruv resurslarini yuqori xavfli segmentlarga yo‘naltirishdan iborat bo‘lishi kerak. [12].

Laboratoriya infratuzilmasining institutsional sifati ISO/IEC 17025 bo‘yicha akkreditatsiya, aniq metod-tahlil-matritsa, metod validatsiyasi, o‘lchash noaniqligi natijalari bilan belgilanadi. O‘ZAKKning ILAC MRA tizimidagi ishtiroki xalqaro ishonch uchun muhim baza yaratadi [13], biroq bu O‘zbekistondagi har qanday laboratoriya natijasi YIda avtomatik tan olinadi degani emas. Muhim masala — aynan eksport qilinadigan mahsulot va tekshiriladigan modda bo‘yicha laboratoriya kompetensiyasining hujjatlashtirish bilan qamrab olinishi.

O‘zbekistondagi institutsional islohotlar va xorijiy tajriba. O‘zbekistonda 2026-yil 12-maydagi PF-84-son Farmon oziq-ovqat xavfsizligi, fitosanitariya va veterinariya

sohalarida yagona davlat boshqaruvi va nazoratini kuchaytirishga qaratiladi [14]. Hujjat “daladan dasturxongacha” riskka asoslangan nazorat, laboratoriya va axborot infratuzilmasini rivojlantirish, ayrim xizmatlarda xususiy sektor ishtirokini kengaytirishni nazarda tutadi. PQ-178-son qaror operatorlar va mahsulotlar bo‘yicha elektron reyestrlar, tashqi savdo risk boshqaruvi hamda bojxonaning “Yagona darcha” tizimi bilan integratsiyani rivojlantirishga asos yaratadi [15]. Vazirlar Mahkamasining 396-son qarori esa yangi institutsional tuzilma, hududiy inspeksiyalar va laboratoriya tizimining tashkiliy jihatlarini aniqlashtiradi [16].

Ushbu islohotlarning eksport uchun asosiy qiymati — bir xil ma'lumotni turli idoralarga qayta-qayta taqdim etish zaruratini kamaytirish va “bir lot — bir raqamli iz” tamoyiliga o‘tish imkoniyatidir. Fermer blokining identifikatori, agroximik qaydlar, namuna kodi, laboratoriya xulosasi, fitosanitar sertifikat, bojxona deklaratsiyasi va transport ma'lumotlari yagona lot identifikatoriga bog‘lansa, hujjat xatolari va nazoratning takrorlanishi kamayadi. Bu nafaqat ma'muriy xarajatni, balki tez buziladigan mahsulotlarda kechikishdan keladigan iqtisodiy yo‘qotishni ham pasaytiradi.

Xorijiy tajriba kuchli tizimning barcha funksiyalarni bitta davlat tashkilotida markazlashtirishdan iborat emasligini ko‘rsatadi. Niderlandiyada meva-sabzavot va o‘simlik mahsulotlari bo‘yicha ixtisoslashgan mustaqil inspeksiya salohiyati shakllangan [17]; Peru SENASA modeli o‘simlik va hayvon salomatligi, agrooziq-ovqat xavfsizligi hamda nazorat funksiyalarini integratsiya qiladi [18]. Senegal bo‘yicha empirik tadqiqot esa yuqori standartlar kichik ishlab chiqaruvchilarni avtomatik ravishda bozordan siqib chiqarmasligini, tegishli kontraktlash, yangi bozorga chiqish va yetkazib berish zanjiri investitsiyalari mavjud bo‘lsa, eksport va daromadni oshirish imkoniyati paydo bo‘lishini ko‘rsatadi [19]. Bu O‘zbekiston uchun sertifikat xarajatini doimiy subsidiyalashdan ko‘ra, guruhli sertifikatlash, umumiy qadoqlash ombori, agronom va laboratoriya xizmatlarini birlashtirish muhimligini anglatadi.

O‘zbekiston uchun tavsiyaviy xulosalar. Yevropa bozoriga agroeksportni barqaror kengaytirish uchun institutsional siyosat tarif imtiyozidan foydalanish bilan cheklanmasligi kerak. Davlatning vazifasi standartlarni yumshatish emas, balki ularga muvofiq ishlash xarajati va noaniqligini pasaytiradigan infratuzilma yaratishdir. Shu asosda quyidagi ustuvor choralar taklif etiladi:

1. GSP+, REX, SPS, MRL, fitosanitar talablar va xaridor standartlarini bitta eksportchi ishida birlashtirish. Eksportchi HS/CN kodi bo‘yicha tarif, kelib chiqish qoidasi, tegishli MRL, fitosanitar talab va zarur sertifikatlarni bitta manbadan tekshira olishi kerak.

2. Ustuvor eksport mahsulotlari uchun “EU-MRL crop protocol” ishlab chiqish. Har bir mahsulot bo‘yicha faol modda, MRL, tavsiya etiladigan qo‘llash davri va hosil yig‘ishdan oldingi interval agronomik tavsiyaga aylantirilib, EU Pesticides Database o‘zgarishlariga mos muntazam yangilanishi lozim.

3. Milliy qoldiq va fitosanitar monitoringni riskka asoslangan modelga o‘tkazish. Monitoring natijalari mahsulot, hudud, faol modda va operator kesimida risk skoringni yangilashi, takroriy nomuvofiqliklar bo‘yicha inspeksiya va treninglar manzilli kuchaytirilishi kerak.

4. Laboratoriya siyosatini uskuna sonidan kompetensiyaga yo‘naltirish. Ustuvor eksport mahsulotlari uchun turli pestitsidlar, og‘ir metallar, mikotoksin va zarur mikrobiologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha ISO/IEC 17025 doirasidagi aniq metod-tahlil-matritsa qamrovi KPI sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq.

5. GLOBAL G.A.P. bo‘yicha individual kompensatsiya o‘rniga producer-group va klaster mexanizmlarini qo‘llab-quvvatlash. Umumiy sifat menejmenti, agronom, qadoqlash ombori, raqamli dalalik qaydlari va ichki audit sertifikatning doimiy xarajatini ko‘proq hajmga taqsimlaydi va kichik fermerlarning eksportga kirishini osonlashtiradi.

6. Raqamli Eksport ID joriy etish. Fermer, dala, pestitsid qaydlari, laboratoriya namuna kodi, fitosanitar sertifikat, bojxona va transport ma'lumotlari bitta identifikator bilan bog‘lanishi, “Yagona darcha” va eksportchi/importer axborot almashinuvi bilan integratsiya qilinishi kerak.

7. Nomuvofiqlik bo‘yicha “monitoring–tahlil–profilaktika” qayta aloqa siklini yaratish. YI chegarasidagi MRL, zararkunanda yoki hujjat xatosi bo‘yicha har bir holat root-cause tahliliga tushib, kelgusidagi agronomik protokol, laboratoriya nazorati, inspeksiya va o‘qitish dasturini o‘zgartirishi zarur.

Xulosa. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonning Yevropa agrobozoriga chiqishida asosiy cheklov tarifdan institutsional muvofiqlikka tomon siljiyotganini ko‘rsatadi. GSP+ eksportchining tarif xarajatini pasaytiradi, biroq bozorga barqaror kirishni SPS salohiyati, MRLga mos ishlab chiqarish, GLOBALG.A.P. kabi xususiy standartlar, HACCP asosidagi jarayon nazorati, fitosanitar tizim, kuzatuvchanlik, akkreditatsiyalangan laboratoriya va riskka asoslangan monitoring belgilaydi. Shu ma'noda sertifikatning o‘zi eksport salohiyati emas; u to‘liq “eksportni muvofiqlashtirish zanjiri”ning faqat bir bo‘g‘inidir.

O‘zbekiston uchun eng samarali model yangi hujjatlar va tekshiruvlar sonini ko‘paytirish emas, balki bir marta yaratilgan ishonchli ma'lumotni ishlab chiqarishdan chegaragacha qayta ishlatish, muvofiqlashtirish va xizmat ko‘rsatuvchi funksiyalarni aniq ajratish hamda kichik fermerlar uchun muvofiqlikning doimiy xarajatlarini kooperatsiya orqali kamaytirishdir. Institutsional jihatdan GSP+ va SPS salohiyati komplementar: tarif imtiyozi bozor imkoniyatini yaratadi, muvofiqlik institutlari esa uni real va takrorlanuvchi eksport natijasiga aylantiradi. Henson va Jaffee [20], shuningdek, Jahon bankining oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha tadqiqotlari [21] ham standartlarga moslashishni faqat to‘siq emas, balki sifat infratuzilmasi va boshqaruvni modernizatsiya qilish omili sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.
2. Williamson O.E. The Economic Institutions of Capitalism. – New York: Free Press, 1985. – 450 p.
3. Krugman P.R., Obstfeld M., Melitz M.J. International Economics: Theory and Policy. 11th ed. – Pearson, 2018.
4. European Commission. Generalised Scheme of Preferences (GSP). – Brussels, 2026. URL: https://policy.trade.ec.europa.eu/development-and-sustainability/generalised-scheme-preferences_en (murojaat sanasi: 08.09.2026).
5. European Commission, DG TAXUD. Registered Exporter System (REX) and preferential rules of origin under GSP. URL: https://taxation-customs.ec.europa.eu/customs/rules-origin-goods/preferential-rules-origin/generalised-system-preferences-gsp_en (murojaat sanasi: 08.09.2026).

6. GLOBALG.A.P. Integrated Farm Assurance for Fruit and Vegetables, Version 6 (Smart and GFS). – Cologne, 2026. URL: https://globalgap.org/what-we-offer/solutions/ifa-fruit-and-vegetables/ (murojaat sanasi: 08.09.2026).
7. European Parliament and Council. Regulation (EC) No 396/2005 on maximum residue levels of pesticides in or on food and feed. – Official Journal of the European Union, 2005.
8. World Trade Organization. Agreement on the Application of Sanitary and Phytosanitary Measures (SPS Agreement). – Geneva: WTO. URL: https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/sps_e.htm (murojaat sanasi: 08.09.2026).
9. European Parliament and Council. Regulation (EU) 2016/2031 on protective measures against pests of plants; Commission Implementing Regulation (EU) 2019/2072. – Official Journal of the European Union.
10. European Parliament and Council. Regulation (EU) 2017/625 on official controls and other official activities. – Official Journal of the European Union, 2017.
11. European Parliament and Council. Regulation (EC) No 178/2002 laying down the general principles and requirements of food law. – Official Journal of the European Communities, 2002.
12. International Plant Protection Convention. Phytosanitary Capacity Evaluation (PCE); International Standards for Phytosanitary Measures. – Rome: FAO/IPPC. URL: https://www.ippc.int/en/about/core-activities/capacity-development/phytosanitary-capacity-evaluation/ (murojaat sanasi: 08.09.2026).
13. International Laboratory Accreditation Cooperation. ILAC MRA and Signatory Search: Uzbek Center for Accreditation (O‘ZAKK). URL: https://ilac.org/signatory_search.php/?q=u (murojaat sanasi: 08.09.2026).
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 12-maydagi PF-84-son Farmoni “Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi, fitosanitariya va veterinariya sohalarida yagona davlat boshqaruvi va nazorati tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – Lex.uz.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 12-maydagi PQ-178-son qarori. – Lex.uz.
16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 21-iyuldagi 396-son qarori. – Lex.uz.
17. Kwaliteits-Controle-Bureau (KCB). Independent inspections of fresh vegetables, fruit, flowers and plants. – The Netherlands. URL: https://kcb.nl/ (murojaat sanasi: 08.09.2026).
18. Standards and Trade Development Facility (STDF). Peru SENASA institutional capacity materials. URL: https://standardsfacility.org/sites/default/files/STDF_PG_502_Application_Sep-15.pdf (murojaat sanasi: 08.09.2026).
19. Maertens M., Swinnen J.F.M. Trade, Standards, and Poverty: Evidence from Senegal // World Development. – 2009. – Vol. 37, No. 1. – P. 161–178.
20. Henson S., Jaffee S. Understanding Developing Country Strategic Responses to the Enhancement of Food Safety Standards // The World Economy. – 2008. – Vol. 31, No. 4. – P. 548–568.
21. Jaffee S., Henson S., Unnevehr L., Grace D., Cassou E. The Safe Food Imperative: Accelerating Progress in Low- and Middle-Income Countries. – Washington, DC: World Bank, 2019.